



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

N.J.Eshnaev<sup>1</sup>

Normatova Zamira Aminjonovna<sup>2</sup>

<sup>1</sup> TVCHDPI Psixologiya kafedrası dotsenti

<sup>2</sup>TVCHDPI Pedagogika fakulteti 1 kurs magistranti

## TA'LIM MUASSASALARIDA RAHBARLARNING BOSHQARUV FUNKSIYALARI MAZMUNI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nizo tushunchasi va uning ijtimoiy-psixologik tahlili yoritib berilgan. Shuningdek, ta'lim-tarbiya tizimida nizoli vaziyatlarni vujudga kelish shart-sharoitlari va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari muxokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** nizo, nizoli vaziyatlar, muloqot, funksiya, shaxs, psixologiya, pedagogika, kategoriya.

**Аннотация:** В статье описывается концепция конфликта и его социально-психологический анализ. Обсуждались также конфликтные условия в системе образования и социально-психологические механизмы их разрешения.

**Ключевые слова:** конфликт, конфликтные ситуации, общение, функция, личность, психология, педагогика, категория.

**Annotation:** This article describes the concept of conflict and its socio-psychological analysis. The conditions of conflict in the education system and socio-psychological mechanisms for their resolution were also discussed.

**Keywords:** conflict, conflict situations, communication, function, personality, psychology, pedagogy, category.

## KIRISH

Pedagoglar jamoasini shakllantirish muammosi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Pedagoglar jamoasining ruhiy muhiti avvalo uning a'zolari kayfiyatida namoyon bo'ladi va ularning ishchanligi ruhiy va jismoniy holatini belgilaydi. Ilmiy jamoalarni o'rganishga bag'ishlangan ijtimoiy-ruhiy tadqiqotlarning dalolat berishicha yaxshi mavqeini egallagan kishilar boshqalardan unumliroq ishlaydilar nisbatan kamroq baxtsiz hodisalarning qurbonlari bo'ladilar, nisbatan kamroq intizomiy kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Bu bir xil darajada pedagogik jamoaga ham taalluqlidir. Pirovard natijada o'qituvchilarning kayfiyati har doim mazkur maktabga rahbarlikning xususiyatlari bilan belgilanadi. Maktab rahbarlarining o'qituvchilar jamoasi emotsional muhitini boshqarishdagi imkoniyatlari juda kattadir. Hozirgi tadqiqotlarning ko'rsatishicha jamoa muhiti ko'p jihatdan tajribali va yosh mutaxassislarining hamkorligi bilan belgilanadi. Bunday holatda yosh va qobiliyatli kishilarga ko'rsatiladigan madad eng muhim jihatlardan biridir. Ko'proq mustaqillikka intilayotgan ana shunday kishilardan iborat jamoalarda bundan intilishni qondirishning o'ziyiq jamoa kuch-g'ayratining ko'pgina resurslarini bo'shatadi va ularni ijodiy izlanishlarga yo'naltiradi. Biroq hozirgi pedagogik jamoalarda "adaptatsiya paradoksi" deb nomlangan holat keng tarqalganki unga muvofiq yangi jamoada o'z xatti-harakatlarida kamroq mustaqil bo'lgan yosh mutaxassislar muvaffaqiyatliroq moslashadilar ko'proq ijodkor bo'lgan boshlovchi pedagoglar esa ko'proq "ziddiyatlar" manbai bo'lib qoladilar.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Pedagogik psixologiyaning murakkab pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan muammo inson kundalik faoliyatida to'qnash keladigan psixologik muloqot va undagi to'siqlar masalasi hisoblanadi. Bu muammo kommunikativ-axborot nazariyasi ijtimoiy- psixologik nazariya va kognitiv psixologiya kontekstida o'tgan asrining o'rtalaridan D.Kata, L.Li, G.Lassvili, M.Anderson, E.S.Kuzmin, B.D.Partin, B.F.Lomov, YA.L.Kolominskiy, E.A.Klimov va boqalar tomonidan maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan.

Nizolarning pozitiv funksiyasi A.K.Markova fikricha, ikkita ahamiyati mavjud a) indikator o'quvchi diqqatini jalb etish, masalan diqqatni o'quvchiga uning qiyinchiliklarida hatolarini ko'rsatib beradi; b) stimulashtiradigan, mobilizatsiya yuzaga kelgan nizolarni tahlil qilish va yengib o'tishda o'qituvchi faoliyatini faollashtiradi, malaka oshiradi. Bu jarayonda o'qituvchining hatoga nisbatan murakkab pedagogik yoki kommunikativ masalani noadekvat yechishi natijasi sifatidagi holatidagi ikkilanishi xarakterlidir. Ba'zilar bu faoliyatda xatoga yo'l qo'yishi mumkin emas desalar, boshqalar buni zaruriy va qochib bo'lmaydigan holat deb hisoblaydilar.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik jamoalardagi shaxslararo munosabatlar va ulardagi nizolarni kelib chiqishini tadqiq qilish uchun aksariyat holatlarda amerikalik sotsiolog K.N.Tomasning shaxsning turli nizoli vaziyatlarda o'zini ko'pincha qanday tutishligini aniqlash imkoniyatini beradigan metodikadan foydalaniladi. Uning yordamida shaxsning hamkorlikka yoki raqobatga moyilligi murosaga kompromiss yon bosishga yo'l berishga tayyorligi nizolardan qochish yoki ularni keskinlashtirishga intilish kabi sifatlarning namoyon bo'lish darajasini aniqlash mumkin. Shuningdek, mazkur metodika jamoaning har bir a'zosining hamkorlikdagi faoliyatga ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik darajasini baholash imkoniyatlarini ham beradi. Shaxslararo nizolar-bu odamlar orasida to'qnashuv kelishmovchilik, qarama-qarshilik vaziyatidir. Shaxslararo nizolar hayotda keng tarqalgan nizolardir. Bunday nizolar oiladagi va ishlab chiqarishdagi nizolarga bo'linadi. Ishlab chiqarishdagi nizolarga quyidagilar kiradi:

- xodim bilan xodim o'rtasida;
- xodim bilan rahbar o'rtasida;
- rahbar bilan rahbar o'rtasida bo'lishi mumkin.

Shaxslar o'rtasidagi nizo ko'p hollarda ularning u yoki bu masalaga bo'lgan nuqtai nazarlarining mos tushmasligi rahbarlar o'rtasida resurslarni taqsimlash xodimlar bilan rahbar o'rtasida esa ish sharoitini qoniqarsizligi kabilar yuzasidan vujudga kelishi mumkin. Insonlar nizoli vaziyatlarda o'zlarini turlicha tutadilar:

ba'zilar yon bosadi, ba'zilar o'zlarining qarashida qat'iy turib oladilar. Psixologiya fanlari doktori N. Obidov nizoli vaziyatlardagi 3 xil xulq atvor tipini ajratib ko'rsatadi:

“Amaliyotchi”

“Hamsuhbat”

“Fikrlovchi” xulq-atvor tiplari.

Ular nizoli vaziyatlarda turlicha harakat qiladilar.

“Amaliyotchi” – “Eng yaxshi ximoya - xujum” tamoyiligi amal qiladi. Ular uchun eng muhimi harakatdir, mana shu nizolarni uzoq vaqt davom etishiga olib keladi. Atrofdagilarning fikrini o'zgaruvchanligi turli qarama-qarshiliklarga olib keladi. “Rahbar - xodim” munosabatlarida biror muammoni hal qilishda nizodan qochib bo'lmaydi. “Amaliyotchi”lar juda maydakash bo'lgani uchun munosabatlarda buzilishlar kuzatiladi.

“Hamsuhbatlar” – “Yaxshi urushlardan ko'ra yomon dunyo yaxshi” degan tamoyilga amal qiladilar. Ular uchun insonlar bilan muloqatda bo'lish birinchi o'rinda turadi. Bunday tipdagi shaxlar o'z g'alar fikrini osonlik bilan qabul qiladilar. Shuning uchun ular ko'pincha jamoadagi norasmiy emotsional liderga aylanadilar.

“Fikrlovchilar” uchun “O'zlarini g'olib bo'ldim deb o'ylayversinlar!” tamoyili xosdir. “Fikrlovchi”lar o'zlari va muhitni anglashga moyil bo'ladilar. Nizoli vaziyatlarda ular o'zlarini haqliklarini va qarama-qarshi tomonni nohaqligini isbotlashda murakkab faktlarni keltiradilar. Nizolashayotgan tomonlarni murakkab vaziyatdan faqatgina uchinchi tomon chiqarib olishi mumkin “Fikrlovchi” lar doim o'z xulq – atvorini o'ylab amalga oshiradilar. Nizoli vaziyatlarda har bir tip vakili o'ziga xos tarzda xulq-atvorini namoyon etadi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Nizoli vaziyatlarni barataraf etish borasida juda ko'p usullar va metodikalar ishlab chiqilgan bo'lib, psixologlar asosan quyidagi mashqlarni taklif etishadi. O'ylaymizki, bu mashqlar sizning hayotingizda yaxshi iz qoldiradi. Hayotingizda xafa bo'ladigan holatlarni kamroq tashkil eting. O'z sog'lig'ingizga e'tibor bering

va sizni xafa holatga tushiradigan soʻzlarni saqlamang. Endi esa birgalikda quyidagi mashqlarni koʻrib chiqamiz:

1. “Boʻshashtiruvchi mashq” – 10-15 daqiqa vazmin, mashq holatida turing. Oʻz xonangizga kiring, oʻrindiqa oʻtiring, koʻzingizni yuming va sizga yoqimli boʻlgan xayolga beriling. Xuddi shu paytda xayolingizdagi narsaning obrazini yaratishga harakat qiling;

2. “Qochish” mashqi – Oʻzingiz xohlagan vaqtda, oʻzingizga qulay dam olishni odat qiling. Buni sizdan boshqalar bilishi shart emas. Koʻzlaringizni sekin asta yuming, hayotdagi yashash tarzingizni koʻz oldingizga keltiring va u haqida oʻylang. Bu ertaklardagiday kichik uy yoki uzoq qishloq, unchalik katta boʻlmagan xona yoki dala hovli boʻlishi mumkin. Bu yerda siz uchun barcha qulayliklar bor. Balki siznikidek shirin hayot kosmik kemada ham boʻlmasa kerak. Siz mana shu yerni tanho hokimisiz. Hayotda nimagaki erishgan boʻlsangiz, hammasi siz bilan, shu hayot sizga yoqadi. Hayotingiz bir maromda. Endi esa koʻzingizni asta-sekin oching. Musiqa eshiting, olovning yonishini tomosha qiling. Oʻqing, yozing, chizing va boshqa oʻzingizga yoqqan ishlarni qiling. Endi oʻylab koʻring, sizda hissiy zoʻriqishga sabab boʻladigan hech qanday sabab yoʻq-ku. Kundan kunga oʻzingizda boʻladigan agressiv holatlarni yoʻqotishga harakat qiling.

3. “Ichki nur” mashqi – Oʻrindiqa qulay oʻtirib, koʻzingizni yuming. Fikrlaringiz tiniqlashmoqda. Tasavvur qiling boshingizning tepasida yorqin nur paydo boʻlmoqda. Bu nur asta-sekin yuqoridan pastga qarab iliq va tiniq nuri bilan ichingizdan sizning yuzingizni yoritib turibdi. Nurning bir maromdagi harakatidan qoshingiz va labingiz atrofidagi chiziqlar silliqlashib, yuzingizning muskullari boʻshashmoqda. Ensa qismingizdagi zoʻriqish yoʻqolmoqda, yelkalaringiz ham zoʻriqishdan ozod boʻlmoqda. Ichki nur sizning yangi qiyofangizni shakllantirmoqda. Bosiq, vazmin, oʻziga ishongan, oʻz hayotidan mamnunlik seza boshlayotgan yangi qiyofa. Mashgʻulotni quyidagi soʻzlar bilan yakunlang: “Men yangi inson boʻldim!”, “Yosh va sogʻlomman!”, “Bosiq va vazminman!”.

4. “Kayfiyat” mashqi – Stolga oʻtiring. Rangli qalam yoki flomaster oling. Toza oppoq qogʻoz albatta boʻlsin. Qogʻozga mavhum chiziq va figuralarni chizing. Bu

paytda hech qanday muammolaringizni o‘ylamang. Yana siz nimani xohlasangiz shuni chizing. Keyin yana qog‘oz olib sizni o‘ylantirayotgan muammolarni tasvirini chizing. Ularga mos ranglarni tanlab bo‘yang. Keyin u rasmlarni bir chetga olib qo‘ying. Yangi qog‘oz olib bir necha so‘zlar yozing. Qanday so‘zlar kerakligi haqida o‘ylamay, miyangizga birinchi kelgan so‘zlarni yozing. Keyin yozgan so‘z va chizgan rasmlarni bir-biriga solishtiring. Sizni qiynayotgan muammoning kalitini topdingiz. Endi hammasini yig‘ishtirib, yashikka tashlang. O‘rningizdan turing. Sizni hech qanday muammo qiynamayapti, chunki sizni yozgan so‘zingiz va chizgan figuralaringiz orqali muammolaringiz ham yashikka tushib ketdi, o‘ylaymizki, uni u erdan qaytarib olmaysiz.

5. “Mening dushmanim – mening do‘stim” mashqi.- Bizga doim o‘zimizning yomon tomonlarimiz ko‘rinmaydi. Chunki biz o‘zimizni sevamiz. Lekin hayotda bizga kamchiliklarimizni ko‘rsatadigan odamni dushman deb hisoblaymiz, bu obro‘yimizni bir pog‘ona pasayishiga olib keladi. Toza qog‘oz oling, uni ruchka bilan ikkiga ajrating. Qog‘ozni bir tomoniga sizni o‘ylantirayotgan ziddiyatga sababchi bo‘layotgan omillarni yozing. Ikkinchi tomoniga esa xuddi mana shu holatlardan qanday chiqishini o‘z fikrlaringizdan kelib chiqib yozing, chunki sizning muammolaringizni o‘zingiz tushungan darajada hech kim tushunmaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda pedagog shaxsidagi ichki nizolarning kelib chiqishi ko‘proq shaxslararo munosabatlar tizimiga bog‘liq bo‘ladi. SHuningdek, pedagog shaxsidagi ichki nizolarning yuzaga kelishi mexanizmlari muloqotdan qoniqmaslik bir-birini tushunmaslik qo‘llab-quvvatlashlari bilan belgilanadi. Pedagog shaxsidagi ichki nizolarining negizini shaxsning muloqotchanlik xususiyatlari tashkil etadi hamda pedagog shaxsida ichki nizolarning ko‘p jihati rahbar shaxsi va uning boshqaruv uslubiga bog‘liq. Shu boisdan ta’lim tizimida raxbar va pedagoglar o‘rtasida psixologik normalardan kelib chiqqan holda sog‘lom shaxslararo munosabatlarini shakllanishi turli xil konfliktlarning bartaraf etilishiga asos bo‘la oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A'zamxo'jaeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi. Psixol. fanl. nomz. diss. ...-T.: 2002. 155 b.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. diss. ...- T.: 2003. 276 b.
3. Gaynutdinov R.Z. O'qituvchiga tarbiya psixologiyasi haqida.-T.: 1995. 20 b.
4. Davletshin. M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.-T.: O'zbekiston. 1999. 30 b.
5. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.
6. Eshnaev N.J. (2021). Ma'naviy-axloqiy muammolarni ilmiy tadqiq etishning o'ziga xos jihatlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. Vol.2, no. 2. p. 364-369.
7. Toshimov R.IU., G'oziev E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya.-T.: 2004. 132 b.
8. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Haydarova Surayyo Abdusalomovna. . (2020) "Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6.
9. Башкин М.В. Конфликтная компетентность личности / диссертация на соискание учен. степени канд. психол. наук по специальности 19.00.05; 19.00.01. – Ярославль, 2009. – 242 с.
10. Беляева Т.Б. Активные методы формирования конфликтологической компетентности у студентов // Психология обучения. 2008. № 7. С. 34-49
11. Бережная Г.С. Формирование конфликтологической компетентности педагогов общеобразовательной школы // автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук / Российский государственный университет им. Иммануила Канта. Калининград, 2009.



12. Бершедова Л.И., Рычихина Э.Н. Конфликтологическая компетентность в структуре профессиональной компетентности учителя и классного руководителя // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2013. № 7 (123). С. 116-121.

13. Владимиренко В.И. Профессионализм руководящих управленческих кадров производственно-хозяйственной сферы и его формирование., Ярославль. педагога // Педагогика. 2004. №3. – С. 64-69

14. Ковалевская, Екатерина Владимировна К 561 Социально-психологические факторы формирования конфликтологической компетентности у студентов гуманитарного профиля. Монография – М.: Мир науки, 2019.

15. Тарабаева В.Б. Организационные механизмы управления конфликтами инновационного развития в вузах: учебное пособие/ В.Б. Тарабаева. – Белгород: Изд-во БелГУ, 2010. – 249 с.